



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

XXI АСР ПСИХОЛОГИЯСИ

Халқаро илмий-амалий анжумани

МАТЕРИАЛЛАРИ



9 сентябрь 2021 йил

муваффақиятсизликка учраши билан боғлиқ бўлади. Бундай муваффақият ҳақиқий муваффақият эмас. У жамият ривожига фойда эмас, зарар келтиради.

Психологияда муваффақиятга нисбатан невротик реакциялар ҳам таҳлил қилинади. Невротик шахслар сохта мақсадлар, сароб қадриялар орқасидан қувар экан, ҳар доим қаергадир кечикади. Невротик спортчи учун ёнида югураётган одам мусобақадош эмас, душман ҳисобланади. Шуни ҳам эътироф этиш керакки, невротик шахсларнинг ўзини аямасдан, олдинга интилиши туфайли жамият ҳам олдинга силжийди, янги технологиялар, янги ихтиrolар қашф қилинади.

Муваффақият вазияти муваффақиятдан фарқ қиласи. Мазкур тушунча муваффақиятни келтириб чиқарувчи шарт-шароитлар йигиндисидир. Муваффақият эса, ана шу вазиятнинг натижасидир. Муваффақиятга эришиш учун шахс муваффақиятга элтувчи вазиятни яратиши лозим. Муваффақият вазияти объектив ҳодиса бўлса, муваффақиятдан шодланиш субъектив ҳолат бўлиб, кўпинча у чет одамлар назаридан яширган бўлади. Одамларнинг муваффақиятдан қувониши, ўзига ишончни мустаҳкамлаши учун шароит яратиши ҳам муваффақият вазиятининг таркибий қисми ҳисобланади.

Шахснинг ўзига бўлган ишончи уни вазиятдан юкорирокка кўтарилиши ва объектив қийинчиликларни енгib ўтиш учун куч бағишилаши мумкин. Психологиядан маълумки, муваффақият ҳам муваффақиятсизлик ҳам инсонда стресс ҳолатини келтириб чиқаради. Лекин, муваффақият қанчалик қийинчилик билан қўлга киритилса ҳам, у жуда кам салбий из қолдиради. У, Г. Селье айтганидай, стресс келтириб чиқаради, лекин дистрессга олиб келмайди [2; 14-б.] Инсонни муваффақият келтирган стресс эмас, муваффақиятсизлик олиб келган дистресс чарчатади ва кучдан кетказади. Айниқса, муваффақиятга эришай деб турганда, муваффақиятсизликка учраш одамга кучлироқ таъсир қиласи. Бундай ҳолат руҳий ёки соматик касалликларга олиб келиши мумкин.

Психология фанида касбий маҳоратнинг бир неча даражалари фарқланади. Масалан, М.Д. Устюжников касбий маҳоратнинг “номинал”, “потенциал”, “истиқболли”, “оптимал” даражаларини фарқлайди [3; 71-б.].

В.А. Бодров касбий маҳоратнинг “дастлабки”, “асосий”, “ижодий” даражаларини фарқлайди [1; 34-б.].

YOSHLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARING OLDINI OLISH VA ULARNI BARTARAF ETISH

*Nazarova Manzura Mustafо qizi,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari, yosh avlod tarbiyasi borasida e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Globallashuv, axborot, yosh avlod, ta'lif, tarbiya, omnaviy madaniyat.

Аннотации: В этой статье рассматриваются социально-психологические проблемы молодежи, меры по их преодолению, аспекты, на которые следует обратить внимание в отношении воспитания подрастающего.

Ключевые слова: глобализация, информация, подрастающее поколение, образование, воспитание, массовая культура.

Annotation: this article focuses on the socio-psychological problems of young people, measures to eliminate them, aspects that should be paid attention to in the field of education of the younger generation.

Keywords: globalism, information, the younger generation, education, upbringing, mass culture.

Bugun biz tez o'zgaruvchan, o'ta shiddatkor va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va journalistlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar asri desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma'lum ma'noda haqiqat, ratsional mag'iz bor. Chunki, ularning har biri o'zaro bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv tariqasida taassurot uyg'otmoqda. Nega deganda, hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir

voqeal yuz bermasin, odamzot bu haqida dunyoning boshqa chekkasida turib zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov globalashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganligining asosiy omili va sababi xususida gapirib: “Shuni obyektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki, jahon miqyosidagi boshqa mintaqasi va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biror mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas. Shu ma'noda, globalashuv – bu, avvalo, hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir” – deb ta'kidlagan edi.[1]

Mana shunday tezkor zamonda o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasi, kelajakda yetuk inson sifatida shakllanishi uchun jamiyatning har bir faol a'zosi birdek mas'ul hisoblanadi. Mamlakatning taqdiri, ravnaqi yosh avlodning har tomonlama sog'gom, barkamol shaxs bo'lib yetishishiga bog'liqdir. Shu sababli, respublikamizda shaxsning kamol topishida beqiyos o'ringa ega bo'lgan ta'lim-tarbiya jarayoniga, tizimiga davlat ahamiyatiga molik masala sifatida qaraladi. Yoshlar- bu ijtimoiy yetuklik, kattalar dunyosiga moslashish va kelajakdagagi o'zgarishlar davrini boshdan kechirayotgan ijtimoiy-demografik guruh. Yoshlik - bu har kim o'z taqdirini o'zi belgilashi, muvaffaqiyatga olib boradigan yagona haqiqiy hayot yo'lini topishi, qobiliyatlari va iste'dodlarini maksimal darajada ro'yobga chiqarishi kerak bo'lgan jarayondir. Bu o'z-o'zini bilish, o'z "Men" ini topish bilan bog'liq bo'lgan, inson o'zining haqiqiy imkoniyatlari chegaralarini aniqlashi lozim bo'lgan, nimalarga qodirligini tushunishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, atrofdagi dunyo, qadriyatlar, siyosiy, axloqiy, estetik qarashlarni tizimlashtirishi kerak bo'lgan mashaqqatli davrdir. Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar aholining taxminan 40 foizini tashkil etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu yoshda insonning ongi, axloqi, ma'naviy qiyofasi shakllanadi. Shu bois mamlakatimizda bunday yoshlarga e'tibor kuchaytirilgan. Konstitutsiyamizning 45-moddasida voyaga yetmaganlar huquqlari davlat himoyasida ekani belgilab qo'yilgan. Asosiy qonunning 64-moddasida esa ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekani, davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalari vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlashi bolalarga yo'naltirilgan hayriya faoliyatini rag'batlantirishi qayd etilgan.

Bugungi kunda yoshlar o'zlarini anglash istagi bilan belgilanadigan, jamiyatda o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan bir qator ijtimoiy-psixologik muammolarga duch kelmoqdalar. Ijtimoiy-psixologik muammolar - bu asosan insonning jamiyat bilan o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan muammolar bo'lib, insonning odamlar o'zaro aloqada bo'lishi, ular bilan hamkorlik qilishi va jamiyatda o'z o'rnini topishi uning psixologik holatiga bevosita bog'liqdir. Ijtimoiy va psixologik muammolar bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini ta'qib qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyat rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik ko'p muammolarni tug'diradi. Shaxsga jamiyatning ta'siri eng avvalo uning ma'naviy tasavvurlarida, dunyoqarashida, hayotga bo'lgan munosabatlarida aks etadi. Shu ma'noda mafkuraviy ongning mazmuni va sog'gom e'tiqodlar ham ijtimoiy muhit va unda o'rnashib qolgan mezonlar asosida shakllanadi.

Bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy yetukligini shakllantirish ko'plab mustaqil omillarning ta'siri ostida sodir bo'ladi: oila, maktab, mehnat jamoasi, ommaviy axborot vositalari, yoshlar tashkilotlari va o'z-o'zidan paydo bo'lgan guruhlar. Ayni davrda yoshlar orasida bir qancha ijtimoiy muammolar kuzatilayotgan bo'lib, ularidan biri bu yoshlar orasida uyushmagan yoshlar qatlaming mavjudligidir. XX asr oxirida kelib xalqimiz taqdirida butunlay yangi davr boshlandi. Tarix tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davrda, qaysi davlatda, qanday tuzumda bo'lishidan qat'i nazar barkamol avlodni yetuk insonlar qilib tarbiyalash, birinchi navbatdagi ustuvor vazifa bo'lib hisoblanadi. Inson shaxsini, uning yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy ma'daniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat, mustaqil vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash barchamizni oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir. Uyushmagan yoshlar bilan ishslash, bu qatlamni o'rganish, ularni birlashtirish bugungi kunning dolzarb ijtimoiy muammolaridan biri bo'lib qoldi.

Xo'sh, uyushmagan yoshlar kim? Uyushmagan yoshlar qatlami qanday qilib vujudga keldi? Ular jamiyatning qanday qatlami? Hozirgi kunda yoshlarning 10 million nafarini uyushmagan yoshlar tashkil etadi, ular ayni vaqtida biror bir kasb-hunar yoki ta'limning ma'lum bir qismida faoliyat olib bormayotgan, oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ham ega bo'lmagan, tayinli ish bilan mashg'ul bo'lmagan yoshlar tushuniladi. Bizning jamiyatimizda bu qatlamning yosh guruhlari o'rtacha 19-24 hamda 2630 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etyapti. Birinchi guruh asosan o'rta maxsus ta'limi bitiruvchilari bo'lib, ular kollej va akademik litseylarni tugatib, yo oliy ta'lim yurtlariga hujjat topshirishadi yoki o'z sohasi bo'yicha ish berayotgan idora va tashkilotlar bilan shartnoma tuzib ishga qabul qilinadilar, lekin ularning barchasi ham ishda qolib, uni davom ettirishmaydi. Statistikaga ko'ra, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining faqat 10 foizigina birinchi yil oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kiradi. Ulardan qanchadir qismi keyingi yil o'qishga kirish uchun tayyorgarlik ko'radi, ayrimlari esa o'qishga kira olmay,

ish topa olmay xorijiy davlatlarga ishlashga ketish holatlari kuzatiladi. Yoshlarning dolzarb muammolari butun jamiyatning kamchiliklarini aks ettiradi. Shuning uchun bu qiyinchiliklarni hal qilish butun jamiyatning farovonligiga ta'sir qiladi. Hozirgi kunda yoshlar o'rtasida keng uchraydigan muammolardan biri bo'lgan ishsizlik holati ularni ko'p hollarda noqonuniy daromadlarni qidirishga undaydi, bu ko'pincha jinoyatchilik, giyohvandlik, qashshoqlik kabi illatlarni keltirib chiqaradi.

Endi esa yoshlar orasida bu ijtimoiy-psixologik muammolarning kelib chiqish sabablari haqida fikr yuritsak. Bunday holatga asosiy sabab, muammoning asosiy omili, birinchi navbatda, ota-onalarimizda hali-hanuzgacha saqlanib qolayotgan eskicha fikrlash va qoloq dunyoqarashdir. Ota-onalarning yoshligidan bolalarga berib kelayotgan “o'qib nima qilasan, o'qib dunyoni olib berasanmi” qabilidagi fikrlari yoki bo'lmasa, bolalarni yoshligidan o'qib, ilm olishga yo'naltirmay psixologik dalda bermay, “qora mehnat”ga jalb qilib, shu bahonada o'qishdan bolani chalg'itib, buning ustiga durustroq kasb-hunar ham o'rgatmasliklari masalaning og'riqli nuqtalaridan biridir.

Oldimizda turgan muammolarni yechishda har bir ikir-chikir sabablarga nazar tashlash o'rnlidir. Bolaning yosh paytidagi o'tkir zehnli, barcha narsani qabul qilishga qodir bo'lgan paytda, ularni durust kasb-hunar yoki o'qishga yo'naltirish o'rniga bolalarni ko'chada vaqtini bekor o'tkazishiga ruxsat bergan, hali endi shakllanish bosqichida turgan bolalarga mobil telefon, kompyuterlar olib berib, ularni nazoratsiz, o'z xohishiga tashlab qo'ygan ota-onalar oramizda yo'q emas. Bolaga yoshligidan ota-onasi zarur tarbiyani berib, o'qishga hamda kasb-hunarga yo'naltirsa, albatta, u kelajakda jamiyatga va oilasiga nafi tegadigan shaxs bo'lib ulg'ayadi. Bu o'rinda Abdulla Avloniyning quyidagi fikrini aytib o'tish joiz: “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”. Shubhasiz oila haqiqiy hayot maktabi va tarbiya o'chog'idir. Biz yosh avlodga ilm-fan hamda kasb-hunarni yoshligidan ongiga singdirib borishimiz kerakki, zero u ulg'ayganda buning foydasi hamda berilagan tarbiyaning to'g'rilingini ongli ravishta tushunib yetsin. Bir qancha rivojlangan mamlakatlarda misol uchun Yaponiyada ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq holda birga olib boriladi. Yapon yoshlari o'qishni barcha narsadan ustun qo'yishadi. Yaponiyada barcha joylarda metrolarda, xiyobonlarda, ko'chalarda, xoh yirik shahar bo'lsin, xoh chekka qishloq hamma yerda bookshop va bookcafelar bor, yapon yoshlari barcha yerlarda o'tirib tinimsiz ilm olish payida bo'lishadi, ularni boshqa hech narsa qiziqtirmaydi. Yapon maktablarida davomat 99,9% ni tashkil etadi, hech qaysi o'quvchi mактабда o'quv formasisiz kelmaydi. Fan imtihonlarida tartib shunchalik yuqoriki, yapon o'quvchi talabalari bir-biridan ko'chirish bir-biriga yordam berish yoki har xil ko'zbo'yamachiliklarni xayollariga ham keltirishmaydi, barchalari, o'zlar uchun, o'z kelajaklari uchun harakat qilishadi. Yaponiyada ta'limda milliy an'analar hamda yaponcha tarbiya ruhi ta'lim bilan omuxtalashib ketgan va hozirgi kunda dunyoning yetakchi mutaxassislari Yaponiyadan yetishib chiqayotganligi, davlat yalpi ichki mahsulotining oshishi, eng muhimmi, jamiyatdagi ishsizlar sonining kamligi yapon ta'lim tizimining naqadar samarali ekanligini isbotlaydi. Biz bunda barcha narsa, hatto, jamiyatdagi ko'plab yechimini kutib turgan muammolarning asl sababi to'g'ri tarbiyaga borib taqalishiga alohida e'tibor berish lozim.

SHaxs mavjud bo'lgan eng yaqin ijtimoiy muhit oila ekanligini nazarda tutgan holda, ta'lim-tarbiya jarayoni avvalo oiladan boshlanishini e'tirof etish joizdir. Psixologlarning e'tirof etishlaricha, bola rivojlanishining har bir davrida uning ongiga o'ziga xos hissiy tuyg'ularni tarbiya dastagi asosida singdirish lozim. Masalan; "Vatan", "Ota" yoki "Ona" tuyg'ularini ona vujudidagi hali tug'ilмаган bolasining ongiga "alla" aytib singdirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aks qolda bola ongidagi mazkur tuyg'uga bo'lgan tarbiya mezoni yetishmovchiligi kelib chiqib, natijada biz kutayotgan bugungi kundagi Vatanparvar darajasida ongi tarbiya topgan yoshlar bo'lib shakllanishda qiyinalar ekan. Insonning bosh miya yarim sharlarining doimiy ravishda ma'lumot (informatsiya)ga bo'lgan ehtiyoji o'ta yuqori bo'lib, u ongiga yetib kelayotgan ma'lumotlarni bu yaxshi yoki bu yomon demasdan, balki, ko'proq salbiy moyillikning yetakchiligi asosida qabul qiladi. Inson ongida yaxshi ishlarga nisbatan yomon ishlarni qilishga bo'lgan moyilligi ustun turadi, u miyamizning psixologik xususiyatini e'tirof etadi. Demak, bola tarbiyasida onalar "alla"si tarbiyaning me'yor mezoni va ma'naviy ong ozuqasi sifatida o'z ta'sirini o'tkazadi, natijada, ongni oziqlantiradi, oqibatda bola ongida vatanparvarlik, ota va onaga mehribonlik psixologik his-tuyg'usi va moyillik kurtaklari shakllana boradi. Hosil bo'lgan psixologik moyillik kurtaklari shakllanishini bir daqiqa bo'lsada to'xtatmasdan, bola tug'ilguncha u bilan emotsional muloqotlar va tug'ilgandan keyin esa mактаб yoshigacha o'yinlar asosida rivojlantirib borish bola tarbiyasidagi eng asosiy psixologik omillardan sanaladi.

Ota-onalarga shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, ona o'z vujudidagi bolasini "hali xech narsani sezmaydi yoki tushunmaydi" deb o'ylashi o'ta bilimsizlik hisoblanadi. Amerikalik psixolog olimlar shunday tajriba o'tkazishadi: olti oylik homilasi bor onani maxsus vakuum qurilmaning ichiga kiritishadi va qurilmani ishga tushirishadi. Qurilmaning ichidagi ona va bolaning holati ekran tasvirida kuzatib boriladi. Onaning ruhiy kayfiyati yaxshi va xursand, ona vujudidagi bola kuladi va barcha harakatlari

xursand kishining harakatlariga monand. Suyuqlik ichida suzib yurgan bola organizmi rilojlanishi uchun kerakli bo‘lgan moddalarni navbatma-navbat og‘zi bilan terib yemoqda. SHunda kuzatuvchi ataylab ona oyoq panjasini va qo‘l panjasini maxsus qisqich bilan siqib og‘ritadi, natijada ona ruhiyatida og‘riq hissiyotida paydo bo‘luvchi asabiylik kayfiyat alomatlari paydo bo‘ladi, bundan ta’sirlangan ona vujudidagi bola yig‘lay boshlaydi va harakatlari ham xafa kishi harakatlariga monand. Demak, ona vujudidagi bola nafaqat tashqi ta’sirni bilvosita, ya’ni ona orgali sezayapti, balki, o‘sha ta’sirga mutanosib javob reaksiyasini qaytaryapti. Bu holat bola tarbiyasiga nafaqat shunchaki yondashuv, balki, o‘ta e’tiborli va mas’uliyat asosida yondashuvni talab qiladi.[2] SHundan ham ko‘rinib turibdiki, bola tarbiyasi o‘ta nozik va ko‘p qirrali psixologik xususiyatlarga ega. Shaxsning shakllanishida ilk tarbiyaning hal qiluvchi o‘ringa egaligi hech kimga sir emas. Oiladagi ota-onal roldagi tarbiyachidan shaxsni ma’lum maqsadga yetaklash, unga insoniy mohiyatni singdirish vazifasini zimmasiga olish talab etiladi. Ayniqsa, ushbu ma’suliyatli vazifani samarali, sifatli bajarilishiga ayollar, ya’ni ona javobgar bo‘lib, u avvalambor, bola shaxsiga jismoniy, psixik, intellektual, ruhiy, ma’naviy kuchlarni to‘plashga yordam berishi, unda hayotini yuqori, faol shaklini namoyon qiluvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni uyg‘ota olishga ta’sir etishi lozim bo‘ladi. Buning uchun esa, ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsga ta’sir etishning xavfsizligini ta’minalash, ya’ni ma’lum me’yorlarga rioya qilish muhimdir. SHaxs tarbiyasiga shunday yondoshuv usuli, uning rivojlanishida yangi bosqichni yuzaga keltiradi va yuksak ma’naviyat sari olib boruvchi zinapoya bo‘lib xizmat qiladi.

Tarbiya uzluksiz jarayon bo‘lib, inson dunyoga kelishidan boshlab, to umrining oxirigacha davom etib boradi. Hodisalarning shaxsga salbiy yoki ijobiy ta’sir etishi uning insoniy fazilatlari qay darajada shakllanganligini belgilaydi. Bugungi kunda ta’lim sohasi oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri ham aynan, shu maqsadga qaratilgan bo‘lib, kelajak avlodni komil shaxs sifatida shakllanishini ta’minalashdan iboratdir. Afsuski, barcha mamlakatlarda bo‘lgani singari bizning o‘sib kelayotgan yoshlarimiz orasida ham tarbiyasi og‘ir va noqobil farzandlar mavjud bo‘lib, ularning tarbiyasi alohida e’tibor va yondashuvni talab etadi. Ilk ta’lim-tarbiya berish jarayonida me’yoriylikning buzilishi, shaxsning ma’naviy, ruhiy, hissiy muammolarining kelib chiqishiga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ular ushbu holatlarda kuzatiladi:

- hissiy (emotsional) rishtalar uzluksizligini ta’minalmaganligi;
- bola hislarini nazorat qila olmaslik, ya’ni bola injiqqliklariga nisbatan haddan tashqari g‘azab yoki g‘amxo‘rlikni ifodalash;
- kamchilik va xatolar mavjudligini qabul qila olmaslik va har bir ishda mukammal bo‘lishni ko‘rko‘rona talab etish;
- mustaqillikdan ko‘ra ko‘proq bo‘ysunishni talab etish;
- mustaqil fikr bildirishini, o‘z qarori bilan harakat qilishni rag‘batlantirmaslik;
- zarur bo‘lgan tanlovda qaror qabul qilish imkoniyatini va shu bilan birga ma’suliyatini bolaga goldirmaslik kabilardir.[3] Yuqorida keltirilgan holatlardan bolada xavfsizlik, umid, ishonch kabi hayotiy tayanch tuyg‘ularning etarlicha bo‘lmasligiga sabab bo‘ladi. SHaxsning kelajak hayotidagi shaslararo munosabatlarda, ruhiy olamida muammolar tug‘diradi, kasbiy tanlovida, shaxsiy hayotidagi muhim qaror va tanlovlarda qiyonalishiga olib keladi.Ushbu muammolarning o‘z vaqtida konstruktiv tarzda yechim topmasligi esa, deviant xulqni yuzaga kelishiga xizmat qiluvchi: odamovilik, ishonchsizlik, agressivlik, adovatlilik, negativlik kabi shaxs xususiyati qirralarini namoyon etishi mumkin.

Hozirgi kunda dolzarb mavzulardan biri bo‘lgan yoshlarni axloqiy tarbiyalash muammolari: hayotda aniq maqsadga ega emasligi, boqimandalik hissining kuchaygani ko‘plab yosh yigitlar va qizlarni jinoyat dunyosining bir qismiga aylanishiga sabab bo‘lib qolmoqda. Oilalarning ijtimoiy qashshoqligi, ota-onal oilasini moddiy ta’minalash maqsadida tarbiyaga yetarlicha ahamiyat bermasligi yoshlarning tarbiyasi, madaniyati va ta’limida aks etadi. Ular ta’lim olishdan, ma’naviy ideallardan uzoglashadi. Jamiyatimizga allaqachon kirib kelishga va ko‘pgina yoshlarni o‘z tarafiga og‘dirishga ulgurgan G‘arb madaniyati moddiy farovonlikka intilib ma’naviy boyliklarni unutib qo‘yishda aks etadi. Bugun turli yo‘llar bilan, har xil “ezgu” niqoblar ostida “ommaviy madaniyat” mamlakatimizga ham tahdid solayotgani sir emas. “Ommaviy madaniyat”ni targ‘ib qilayotgan g‘arazli kuchlarga aslida hech qanday madaniyat va inson ma’naviyati, axloqiy qoida-yu qadriyatlarning aslo keragi yo‘q. Ularning strategik reja va siyosiy maqsadlariga erishish, ayrim mamlakatlarning yer osti, yer usti boyliklari ega bo‘lish, o‘z izmiga solish uchun bu bir vosita, xolos. Bir so‘z bilan aytganda, hamma narsaga erkinlik nuqtai nazaridan qaraydigan “ommaviy madaniyat”ning asosiy maqsadi – yoshlarning irodasini susaytirish, o‘zining hayotiga, atrofidagi odamlarga qarshi qo‘yish va oxir-oqibatda erkinligidan judo qilishdir. Bugungi kunimizga qaytadigan bo‘lsak, hozirgi globallashuv jarayonida aloqa va axborot almashinuvi o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarilgani, internet va OAVning inson ongiga ta’sir qiluvchi, nafaqat ta’sir qiluvchi, hatto uni ma’lum yo‘nalishga burib yuboruvchi kuchga aylangani “ommaviy madaniyat” deb ataluvchi illatning dunyo

yoshlari orasida yashin tezligida tarqalishiga sabab bo‘lmoqda. “Ommaviy madaniyat”ning turli xil ko‘rinishlarining yoshlar orasida tobora keng tarqalishi, asosan, kiyinishda, qiziqishlarda, bo‘sh vaqt ni o‘tkazishda, didlarning sayozlashuvida, milliy qadriyatlarga munosabatda namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda yoshlar orasida taqlidchilik holatlarining kuchayayotganligi va yanada toboro avj olyotganligi kuzatilmogda. Bunda, xorijda keng tarqalgan axloqiy va ma’naviy yurish-turish andozalarining kinofilmlar, moda va turli xil reklamalar orqali yoshlarimizning ongini ma’lum ma’noda zaharlayotganini sezish qiyin emas. Natijada, yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishdan ko‘ra kompyuter o‘yinlarining oldida vaqtini o‘tkazish, mazmunan sayoz bo‘lgan turli xil janrdagi filmlarni tomosha qilish odat tusiga kirib bormoqda.

O’sib kelayotgan yosh avlodni yuqoridagi illatlardan uzoq tutish uchun ota-onalar quyidagi tavsiyalarga amal qilishlari maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

- Avvalo, ota-onaning o‘zi farzand tarbiyasi borasida o’rnak bo‘lishi lozim, ya’ni agar farzandingiz kamroq televizor ko‘rishini, telefondan kamroq foydalanishini istasangiz, o‘zingiz ham bunday mashg‘ulotlarni kamaytiring. Uni kitob o‘qishini xohlasangiz, siz ham uning ko‘z o‘ngida kitob o‘qishni kanda qilmang.

- Farzandingizning xatti-harakatlari birdaniga o‘zgarishini kutmang. Uning o‘zgarishini kuzatib boring. To’satdan katta maqsad qo‘yib undan katta natija kutmang. Farzandingizga muqobil yechimlar ko‘rsating.

- Farzandingizni muhim kunlarida ularning yonida bo‘ling. Ana shunday qilsangiz, farzandingizda ijobjiy o‘zgarishlarni ko‘rasiz. Qisqa fursatda o‘z maqsadlari sari intiladigan va mehnat qilishdan charchamaydigan, noto‘g‘ri xatti-harakatlardan uzoq turadigan farzandga ega bo‘lasiz. Agar oila milliy qadriyatlar asosida shakllangan bo‘lsa, shubhasiz, o’sha oilada tarbiya topgan farzand ham vatanparvarlik tuyg‘usi kuchli, har tomonlama yetuk shaxs bo‘lib voyaga yetadi.

Adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008. –110b.
2. Appadurai A. Dsjuncture and difference in the global cultural economy.// Robertiion ft. White KE. (Ed.) Globalisation. Critical concept in sociolog. – London. – Vol.1. –2003. –P.251.
3. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog‘lom avlod tarbiyasi. –T.: O’zbekiston, 2000.- 134b

РОЛЬ СЕМЬИ В ОБЩЕСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ

Набиева Мадина,
г.Бухара, Узбекистан

Аннотация: В статье идёт речь о роль семьи в общественном воспитании, также о ребенке который приобретает в семье и самые первые, и самые важные навыки. Именно в семье дети проводят большую часть своего детства. И именно семья проявляет самую большую заинтересованность в воспитании ребенка, и потому энергичней любых других социальных институтов воздействует на подрастающее поколение.

Ключевые слова: Семья, ребёнок, воспитание, общество, общественное воспитание, семейное воспитание.

Семья – это особый коллектив, где, как во всяком, коллективе многое прививается стихийно – под влиянием «окружающей среды» («ближайшего окружения»), и только немногое – становится результатом целенаправленного воздействия. Так у беспокойных родителей растут нервные детишки; у честолюбивых – либо такие же заносчивые, как мама с папой, либо подавленные родительским высокомерием, изрядно закомплексованные.

Там, где в семье уютно, – вырастают дети достойные называться настоящими семьянинами, способными создать крепкую и дружную семью, вроде родительской. А там, где семья неуютна, – вырастают люди, склонные к одиночеству, нелюдимые, избегающие семьи и брака.

Всякое общество заинтересовано в том, чтобы семья была его прочной и надежной ячейкой. Потому что без стабильного нижнего уровня социальной структуры и вся эта структура в целом становится неустойчивой, весьма подверженной разрушительным и опасным потрясениям социального, природного и техногенного характера.

- 104 **КАХАРОВА Д.С., ХУДОЙБЕРДИЕВ Ш.Б.** Алоҳида эътиборга мухтожлиги бўлган болаларга таълим-тарбия беришда ўзига хос жиҳатлари
- 107 **КАХАРОВА Д.С.** Инклузив таълимга жалб этилган бошлангич синф ўқувчиларни мослашишида педагогик-психологик хусусиятлари
- 109 **КИЛИЧЕВ А.А., МИРЗАЕВА Ш.С.** Теоретические основы формирование образа семьи у современной молодежи
- 112 **ҚОДИРОВА** Д. Ёшларни оиласвий ҳаётга тайёрлашнинг психологик омиллари
- 116 **ҚОСИМОВА С.Б.** Экстремал вазиятларда шахснинг стрессли ҳолати ва хулқ- автор реакциялари
- 119 **ҚОСИМОВ У.А.** Мактабгача ёш даври болаларда фикрлаш қобилиятини ривожлантиришнинг самарали йўллари
- 121 **КУЛИЕВ Ё.К.** Социально-психологические особенности юношеского возраста
- 125 **ЛАРИОНОВА Л.И., АЗАРОВА Л.Н.** К проблеме использования арт-технологий в формировании личности студентов
- 128 **МАКСИМЕНКО С.Д.** Актуальные вопросы использования генетико-креативного метода психологического изучения личности
- 133 **МАҚСАДОВА М.С., ОЧИЛОВА З.З.** Бошлангич синф ўқитувчининг ўзига хос психологик хусусиятлари
- 136 **МУХАМЕДОВА Д.Г., САЛАХУТДИНОВА М.И.** Проблемы психологии потребителя образовательных услуг
- 139 **МУХАМЕДОВА Д.Г., БОЙМИРЗАЕВА Д.Д.** Психокоррекционная работа по снижению фрустрации у студентов
- 141 **МУХАМЕДОВА Ш.М.** Психосоциальная диагностика детско юношеских спортивных команд
- 143 **МУХТОРОВ Э.М.** Врачлар касбий маҳорати тузилмасини ўрганишнинг услугий масалалари
- 146 **NAZAROVA M.M.** Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolarining oldini olish va ularni bartaraf etish
- 150 **НАБИЕВА М.** Роль семьи в общественном воспитании
- 152 **НАЗАРОВ А.М. НУСРАТОВА М.Б.** Спортчиларда психологик муҳофазани ривожлантиришнинг ўзига хос усувлари
- 154 **НУРГАЛИЕВА У.С., НУРГАЛИЕВА А.М.** К вопросу о цифровом психологе в образовании
- 158 **НУРИДДИНОВА Х.** Влияние сми на психику учеников начальных школьников
- 160 **НУРМАТОВА М.** Никоҳ олди омилларининг психологик хусусиятлари ва уларни никоҳ мустаҳкамлигига таъсири
- 163 **ОГНЕВА И.В.** Проблема трансформации личности
- 165 **ОЛИМОВ Ш.Ш., ЖУМАЕВА М.А.** Талабаларни креатив ёндашувлар асосида инновацион фаолиятга тайёрлаш хусусиятлари
- 170 **ОЛИМОВ Л.Я., МАХМУДОВА З.М.** Ўсмирларда психологик ҳимоя механизmlарининг намоён бўлишининг ўзига хослиги
- 175 **ОСТАНОВ Ш.Ш.** Использование техник арт-терапии
- 178 **ОСТОНОВ Ж.Ш.** Ўсмирларда копинг хулқ-авторнинг асосий стратегиялари
- 180 **ПЕРМИНОВА Л.А.** Психологизация развития будущего педагога в процессе профессионального образования
- 183 **ПОКЛАД И.Н.** Психолого-педагогическое сопровождение развития творческой личности
- 186 **ПОКЛАД И.Н.** Психолого-педагогическое сопровождение развития творческой личности
- 190 **РАНМОНОВА D.** Boshqa ta’limda innovatsiya klaster - fanlararo integratsiya va uzlucksizlikning kafolati
- 192 **RAJABOV A.** Musiqiy tasavvur
- 196 **РАХИМОВА А.К.** Социофобия: причины, симптомы, способы лечения